

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Yanvar, 2020

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yettinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.


Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyihasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.


2020-yil yanvar oyida loyihaga 45 888 867 so'm xayriya qilindi, 113 891 319 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Ma'muriy xarajatlar	- 13 495 680
Bank xarajatlari	- 531 520
Tarjima	- 14 495 360
Tahrir	- 24 960 419
Video	- 15 771 432
Marketing	- 3 198 976
Fandreyzing (mablag' yig'ish)	- 4 998 400
Ta'mirlash va texnik xarajatlar	- 1 100 000
Aloqa xarajatlari (internet, telefon)	- 1 892 000
Ijara haqi	- 11 200 000
Soliqlar	- 21 083 524
Boshqa xarajatlar	- 1 164 008
Jami	- 113 891 319

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



Yanvar oyida xarajatlarning 48,4 foizi (55 227 211 so‘m) kontentni yaratishga, ya’ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



Bugungi kungacha loyihaga 1 344 574 533 so‘m va 76 595 AQSH dollari xayriya qilindi, 1 074 497 858 so‘m sarflandi.

- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko‘rish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko‘rish mumkin.
- Tayyor video darslar [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>